

## AI-80 BENZINING AVTOMOBILLARGA SALBIY TA'SIRLARINI TAHLIL QILISH

Xudoyberdiyev Asliddin Chori o'g'li,  
Termiz muhandislik-texnologiya institute stajyor-o'qituvchi  
[xudoyberdiyevdoniyor03@gmail.com](mailto:xudoyberdiyevdoniyor03@gmail.com)

Ibragimov Hasan Eshpulatovich,  
Stajyor-o'qituvchi Termiz muhandislik-texnologiya instituti  
[ibragimovh049@gmail.com](mailto:ibragimovh049@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada Ai-80 markali benzining kamchiliklari va tabiatga yetkazayotgan salbiy ta'sirlari o'rganish va ba'zi avtomobillar Ai-80 markali benzindan foydalanganligi sababli ba'zi detallarining tez ishdan chiqishi, prezidentimizning Ai-80 markali benzina nisbatan bildirgan fikrlari, taklif va topshiriqlari haqida o'rganildi va o'zimizning xulosa va takliflarimizni yoritishga harakat qildik.

**Kalit so'zlar:** Ai-80 markali benzin, prezident, xalq, fikr, taklif, dvigatel, porshin, zapravka, sifat

### Abstract

In this article, we will study the disadvantages of Ai-80 gasoline and the negative effects it has on nature, and the rapid failure of some parts of some cars due to the use of Ai-80 gasoline, the opinions of our president regarding Ai-80 gasoline, suggestions and We learned about the assignments and tried to highlight our conclusions and suggestions.

**Key words:** Ai-80 gasoline, president, people, opinion, offer, engine, piston, fuel tank, quality

### Аннотация

В этой статье мы изучим недостатки бензина Ai-80 и негативное воздействие, которое он оказывает на природу, а также быстрый выход из строя некоторых



деталей некоторых автомобилей из-за использования бензина Аи-80, мнение нашего президента относительно Аи. Бензин -80, предложения и Мы узнали о заданиях и постарались осветить свои выводы и предложения.

**Ключевые слова:** бензин Аи-80, президент, люди, мнение, предложение, двигатель, поршень, топливный бак, качество.

### **Kirish**

Prezident Shavkat Mirziyoyev bosh vazirga O‘zbekistonda 2025-2026 yildan Ai-80 benzinidan voz kechish masalasini uzil-kesil hal qilishni topshirdi. Bundan tashqari Toshkent shahrida og‘ir yuk mashinalari, 10 yildan oshgan avtomobillar hamda Yevro-4 standartidan past yonilg‘ini ishlatishning atrof-muhitga zararini kamaytirish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Vazirlik Ai-80 markali benzini ko‘p mamlakatlarda taqiqlanganini, hatto neft mahsulotlarini to‘liq import qiladigan Qirg‘iziston va Tojikistonda ham allaqachon iste‘moldan olinganini, hozircha mintaqada faqat O‘zbekiston va Afg‘onistonda Ai-80 markali benzinidan foydalanish davom etayotganini bildirgandi.

2025-yilga borib Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida Ai-80 markali benzinini ishlab chiqarilishi to‘xtatilsa, 2026-yilga borib Buxoro neftni qayta ishlash zavodi to‘lig‘icha sifatliroq yonilg‘i ishlab chiqarishga o‘tkazilishi ma‘lum qilingandi.

**Yurtimizda yildan-yilga** avtotransportlar soni oshib bormoqda va shu bilan birga, avtotransportlardan chiqayotgan zaharli gazlar atrof-muhitga va odamlarga salbiy ta‘sir qilmoqda. Tabiatga faqat avtomobillardan chiqayotgan zaharli gazlar salbiy ta‘sir ko‘rsatyapdi diyolmaymiz, aytolamizki ba‘zi zavodlar, sanoat korxonolari, aholi uylaridan chiqayotgan har xil axlatlar, barcha transportlardan chiqayotgan zaharli gazlar. tabiatimizni zaharlamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

**Misol tariqasida qish kunlarida** O‘zbekistonda metan gaz quyish shahobchasi darajalarida metan gazga bo‘lgan talab yuqori bo‘ladi. Qish kunlarida aholining ko‘p qismi metan gazning taqchilligi aziyat ko‘radi. Shu boisdan avtomobiliga benzin quyib, avtotransport vositasini boshqaradi. Ai-80 benzining bo‘lgan talab O‘zbekistonda juda yuqori chunki narx yuzasidan aholiga maqul keladi. Lekin Ai-80 benzinning sifat darajasi yaxshi emas. Ko‘pincha avtomobil



boshqarayotgan insonlardan eshitib qolamiz. Ai-80 benzindan avtomobilimga qo‘ygan edim, avtomobilimdan har xil shag‘illashlar, no‘malum tovushlar chiqib qolyapdi. Metan gazda unaqa bo‘lmas edi deyishadi. Bundan kelib chiqadiki Ai-80 benzinning sifati yaxshi emas.




1-rasm. shatun, porshin



2-rasm. klapan, klapan prujenasi

1-rasmga nazar soladigan bo‘lsak cobalt avtomobiliga Ai-80 benzindan 20 litr quyib haydalgan va ikki kundan keyin cobalt avtomobili yurmay qolgan. Dvigatelga TXK uchun ochib ko‘rilsa porshinlar, xalqalar sinib qolgan. Ustalarning aytishicha Ai-80 ga ba‘zi zapravkalar gazning qoldiq kansatlaridan qo‘shib yubormoqda. Buning oqibatida avtomobillarning porshinlari, porshin xalqalari, klapanlar, gilzalar, benzin nasos, benzin filtr, injektorlar va boshqa detallarida nuqsonlar ko‘paymoqda.



3-rasm. Benzin quyish shahobchasi.

Ba'zi zapravkalar Ai-80 benzinini Ai-91 deb aldab sotayotgan ba'zi insonlar ham uchrab turibdi. Bunday insonlarga tegishli idoralar, tezda chora ko'rishi kerak.

**Yuqorida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev** Ai-80 markali benzinni 2025-yildan kiyin ishlab chiqarishni to'xtatish bo'yicha bosh vazir Abdulla Aripovga topshiriq berdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqni, tabiatni va barchani o'ylab bu fikrni bergan. Lekin Ai-80 benzinni ishlab chiqarish to'xtatilsa, xalqning asosiy qismi Ai-91, Ai-92, Ai-95 markali benzinlardan foydalanishga iloji yetmay, qiynalib qoladi. Agar Ai-80 benzin chiqarilmasa Ai-91, Ai-92 benzinlarning narxini pasaytirsam maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shunda xalqimiz avtomobillariga qulay narxlarda sifatli Ai-91, Ai-92 benzinlardan quyur edi va avtomobillarining ekspluatatsiyasi uzayardi. Ya'ni avtomobillarning detallarining buzilmay ishlashi, kafolati uzayar edi. Hamda avtomobillar tabiatga Ai-80 benzininga nisbatan kamroq zaharli gazlar chiqargan bo'lar edi.

### Xulosa

Yurtimizda katta islohatlar yuritilmoqda, avtomobil sanoatimiz ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Yaqinda Jizzax viloyatida BYD zavodi ishga tushadi. Farg'ona viloyatida elektramobil zavodi qurilmoqda. Yaqin yillarda benzin gaz muammosiga yechimlar chiqadi. Faqat biz ham o'z kelajagimizga befarq qaramasligimiz kerak. Davlatimizda ba'zi rahbarlar bizning salomatligimizni o'ylab bizlarga Ai-80 benzin markasini cheklamoqchi. Nasib Ai-91, Ai-92 benzinlarning narxi pasayadi deb umid qilamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sheraliyevich P. B., Urazovich C. B. Shahar Aholisini Jamoat Transportida Tashishda Harakat Muntazamligini Oshirish Yo 'llari (Termiz Shahar 15-Yo 'Nalishli Avtobus Misolida) //Open Academia: Journal of Scholarly Research. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 35-38.
2. Sheraliyevich P. B., Chori o'g'li X. A. HAYDOVCHILAR, YO 'LOVCHILAR VA PIYODALARNING YO 'LLARDA YURISH MA'DANIYATI //Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 30-34.
3. Shamsutdin o'g'li M. A., Baxtiyor o'g'li A. R. ANALYSIS OF IMPROVING



THE EFFICIENCY OF TERMIZ CITY PUBLIC TRANSPORT STATIONS

//Intent Research Scientific Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 6-10.

4. Chori ogli X. A. ПРИЧИНЫ И ОСОБЕННОСТИ УВЕЛИЧЕНИЯ РАСХОДА МАСЛА В ПРОЦЕССЕ РАБОТЫ ДВИГАТЕЛЕЙ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 11-14.
5. Internet saytlar
6. <https://daryo.uz>
7. <https://www.gazeta>

